

Amaliyot xisoboti

Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash fakulteti 3-bosqich talabalari, Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi irrigatsiya va melioratsiya obyektlaridagi amaliyotning 2-bosqichida. Oliygo'nda amaliyot darslarida olingan bilimlar o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash kafedrasiga tegishli bo'lgan E-o'quv binosidagi simulyatorlar ustida bajarilgan amaliy mashg'ulotlar. Talabalar ishlab chiqarish amaliyotida kanallarni tozalash va tiklash ishlarida o'z xissalarini qo'shmoqdalar. Har bir talaba o'zlari ekskavatorlarni boshqarib shu bilan birga bir sikldagi ish unumdorligi va bir smenadagi ish unumdorliklarini hisoblab chiqishdi. Natija esa ishlar shu zaylda davom etsa loyihada ko'rsatilgan vaqtdan ham avvalroq belgilangan ishlar nihoyasiga yetishi mumkinligi ma'lum bo'ldi.



Talabalar bilimlarini boyitish va yanada gidromeliorativ texnikalarga bo'lgan qiziqishlarini orttirish maqsadida GIM kafedrasida stajer o'qituvchilari Muzaffar Xobo'tayev va Furqat Yusupovlar tomonidan gidromeliorativ texnikalar kuch qurilmalari(dvigatellar), transmissiyasi va boshqaruv qurilmalari haqida qo'shimcha ma'lumotlar berib borilmoqda.Talabalaringgiz yetarli bilimga ega ekanlar, qiziqishlari ham yuqori va bu institutlaringizdagi darslar sifati yuqori ekanligidan dalolat deydi ekskavator boshqaruvchisi Bahodir aka.



Yotoqhonada talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida shaxmat va shashka to'garaklari tashkil etilgan. Amaliyotdan qaytganlaridan so'ng ushbu talabalarimiz shaxmat va shashka bo'yicha Respublika bosqichlarida institutimiz shanini himoya qilib yuqori o'rnlarni qo'lga kiritsalar ajabmas. Amaliyot davom etmoqda...